

**XALQARO SPORT NIZOLARINI HAL ETISHDA SPORT ARBITRAJ SUDINING (CAS)
AMALIYOTI: ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING HUQUQIY
YECHIMLARI**

Ismoilov Fahriddin

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistratura bosqichi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22051023>

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro sport nizolarini hal etishda Sport arbitraj sudining (Court of Arbitration for Sport — CAS) huquqiy maqomi, yurisdiksiyasi va zamonaviy arbitraj amaliyoti tahlil qilingan. Tadqiqotda CAS tomonidan nizolarni ko'rib chiqishning oddiy arbitraj va apellyatsiya arbitraji shakllari, shuningdek, antidoping nizolarini hal etish mexanizmlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. CAS amaliyotida protsessual adolat, sportchilarning eshitilish huquqi, arbitrajchilarning mustaqilligi va xolisligi, nizolarni tezkor ko'rib chiqish hamda arbitraj qarorlarining yakuniyligi bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, CAS qarorlarining xalqaro sport huquqining rivojlanishi va Lex Sportiva shakllanishiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida sport arbitrajida tezkorlik va protsessual adolat o'rtaidagi muvozanatni ta'minlash, sportchilarning protsessual huquqlarini kuchaytirish, arbitrajchilarning mustaqilligini ta'minlash hamda arbitraj qarorlarining samarali ijrosini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Maqolada CAS amaliyotining O'zbekiston sport huquqi uchun ahamiyati ham asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro sport huquqi, sport arbitraji, Sport arbitraj sudi, CAS, xalqaro sport nizolari, Lex Sportiva, antidoping, protsessual adolat, sportchi huquqlari, arbitraj qarori.

Аннотация. В статье исследуются правовой статус, юрисдикция и современная арбитражная практика Спортивного арбитражного суда (Court of Arbitration for Sport — CAS) в сфере разрешения международных спортивных споров. Особое внимание уделено особенностям рассмотрения споров в рамках обычного арбитражного и апелляционного производств CAS, а также механизмам разрешения антидопинговых споров.

Проанализированы актуальные вопросы обеспечения процессуальной справедливости, права спортсменов быть выслушанными, независимости и беспристрастности арбитров, оперативности рассмотрения спортивных споров и окончательности арбитражных решений. Отдельное внимание уделено роли решений CAS в развитии международного спортивного права и формировании концепции Lex Sportiva.

На основе анализа арбитражной практики выявлена необходимость обеспечения баланса между оперативностью арбитражного производства и соблюдением процессуальных гарантий участников спортивных споров. В статье также сформулированы научно-практические предложения по усилению процессуальных прав спортсменов, повышению независимости арбитров и совершенствованию механизмов исполнения арбитражных решений. Обоснована актуальность использования международного опыта CAS для дальнейшего развития спортивного права Республики Узбекистан.

Ключевые слова: международное спортивное право, спортивный арбитраж, Спортивный арбитражный суд, CAS, международные спортивные споры, Lex Sportiva, антидопинг, процессуальная справедливость, права спортсменов, арбитражное решение.

Abstract. This article examines the legal status, jurisdiction and contemporary arbitration practice of the Court of Arbitration for Sport (CAS) in the settlement of international sports disputes. Particular attention is paid to the specific features of ordinary arbitration and appeal arbitration proceedings before CAS, as well as to the mechanisms for resolving antidoping disputes. The study analyses key issues concerning procedural fairness, athletes' right to be heard, the independence and impartiality of arbitrators, the need for expeditious dispute resolution, and the finality of arbitral awards. The article also examines the role of CAS jurisprudence in the development of international sports law and the formation of the concept of Lex Sportiva. Based on the analysis of CAS practice, the study identifies the need to maintain an appropriate balance between the efficiency of arbitration proceedings and the protection of procedural rights of the parties. The article proposes a number of legal and practical measures aimed at strengthening athletes' procedural guarantees, ensuring greater independence and impartiality of arbitrators, and improving the effectiveness of enforcement of arbitral awards.

The relevance of applying the international experience of CAS to the further development of sports law in the Republic of Uzbekistan is also substantiated.

Keywords: international sports law, sports arbitration, Court of Arbitration for Sport, CAS, international sports disputes, Lex Sportiva, antidoping, procedural fairness, athletes' rights, arbitral award.

KIRISH

Bugungi kunda sport nafaqat jismoniy musobaqalar tizimi, balki xalqaro iqtisodiy, huquqiy va institutsional munosabatlarning muhim sohasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Professional sportning globallashuvi natijasida sportchilar, sport klublari, milliy va xalqaro federatsiyalar, homiyarlar, translyatsiya kompaniyalari hamda boshqa subyektlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar sezilarli darajada murakkablashdi.¹

Mazkur jarayon, o'z navbatida, sport sohasida yuzaga keladigan nizolarning soni va huquqiy murakkabligini oshirmoqda. Sportchining diskvalifikatsiyasi, antidoping qoidalarining buzilishi, transfer shartnomalari, sportchilar va klublar o'rtasidagi mehnat munosabatlari, federatsiyalarning intizomiy qarorlari, litsenziyalash, musobaqalarda ishtirok etish huquqi hamda sport tashkilotlarining boshqaruv qarorlari bilan bog'liq nizolar xalqaro sport arbitrajining predmetiga aylanmoqda.

Bunday nizolarni oddiy davlat sudlari orqali hal qilish har doim ham sport sohasining o'ziga xos xususiyatlariga mos kelavermaydi.² Chunki sport nizolarining aksariyati tezkorlikni talab qiladi.

¹ Casini, L. *The Making of a Lex Sportiva by the Court of Arbitration for Sport*. German Law Journal, Vol. 20, 2019, pp. 469–484.

² Court of Arbitration for Sport (CAS), *History*, Court of Arbitration for Sport.

Masalan, sportchi musobaqada qatnashishdan chetlashtirilgan bo'lsa, nizoni bir necha oy yoki yil davomida ko'rib chiqish natijasida chiqarilgan qaror amaliy jihatdan o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Shu sababli xalqaro sport huquqida ixtisoslashgan arbitraj mexanizmlarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega.³ Ana shunday ixtisoslashgan institutlardan biri — Sport arbitraj sudi (Court of Arbitration for Sport — CAS) hisoblanadi.⁴ CAS 1984-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda xalqaro sport nizolarini arbitraj va mediatsiya orqali hal qiluvchi mustaqil institut sifatida faoliyat yuritadi.

CASning tashkil etilishida sport nizolarini moslashuvchan va sport hamda huquq sohasida tajribaga ega mutaxassislar tomonidan ko'rib chiqish zarurati asosiy omillardan biri bo'lgan.

CASning o'ziga xos jihati shundaki, u faqat oddiy arbitraj nizolarini emas, balki sport tashkilotlari tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan berilgan apellyatsiyalarni ham ko'rib chiqadi.⁵ Bundan tashqari, CAS Antidoping bo'limi ayrim antidoping nizolarini birinchi instansiya yoki yagona instansiya sifatida ko'rib chiqish vakolatiga ega. Shu sababli CAS amaliyotini o'rganish xalqaro sport nizolarini hal etishning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash, mavjud huquqiy muammolarni ochib berish va ularni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi

Tadqiqotning asosiy maqsadi - xalqaro sport nizolarini hal etishda CAS faoliyatining huquqiy va amaliy xususiyatlarini tahlil qilish, CAS amaliyotida mavjud zamonaviy muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- CASning xalqaro sport nizolarini hal etishdagi huquqiy maqomini aniqlash;
- CAS yurisdiksiyasining asosiy shakllarini tahlil qilish;
- CAS arbitrajining davlat sudlari bilan solishtirgandagi afzalliklarini aniqlash;
- CAS amaliyotida protsessual adolat va sportchi huquqlarining ta'minlanishini o'rganish;
- arbitrajchilarning mustaqilligi va xolisligi bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish;
- antidoping nizolarini ko'rib chiqish amaliyotini o'rganish;
- CAS qarorlarining xalqaro sport huquqining rivojlanishiga ta'sirini baholash;
- mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

CASNING XALQARO SPORT NIZOLARINI HAL ETISHDAGI HUQUQIY MAQOMI

Sport arbitrajining rivojlanishi sport munosabatlarining o'ziga xos tabiatidan kelib chiqadi.

³ Salomov J.B., Valeev A.M. Sport arbitraji O'zbekistonda rivojlanib borayotgan yangi huquqiy fenomen sifatida Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2022. – №4. – B. 142–148

⁴ Court of Arbitration for Sport, The Court, Court of Arbitration for Sport.s

⁵ Turdialiye M.P. Sport sohasidagi nizolarining ko'rib chiqilishi. Toshkent: TDYU, o'quv qo'llanma.

Sport tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar ko'plab hollarda xalqaro xususiyatga ega bo'lib, turli davlatlarda faoliyat yurituvchi sportchilar va tashkilotlarga bir xil tarzda tatbiq etiladi.⁶

CAS aynan mana shu transmilliy sport munosabatlari uchun maxsus nizolarni hal etish mexanizmini shakllantirdi.⁷

CASning vakolati bir nechta protsessual mexanizmlarga asoslanadi. Birinchidan, taraflar shartnomada yoki sport tashkilotining nizomida arbitraj shartini nazarda tutgan bo'lsa, nizoni oddiy arbitraj tartibida CASga taqdim etishlari mumkin. Ikkinchidan, sport federatsiyasi yoki boshqa sport tashkilotining qarori ustidan apellyatsiya CASga berilishi mumkin. Bunday hollarda tegishli sport tashkilotining nizomi yoki reglamentida CASga murojaat qilish imkoniyati nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

CASning aynan apellyatsiya yurisdiksiyasi xalqaro sport huquqida alohida ahamiyatga ega.

Chunki sportchi yoki klub ichki sport tashkilotining qaroridan norozi bo'lgan taqdirda, nizoni CASga olib chiqishi mumkin.

CAS Kodeksiga ko'ra, apellyatsiya tartibida murojaat qilish odatda tegishli sport tashkilotining ichki huquqiy vositalari tugatilganidan keyin amalga oshiriladi. Agar sport tashkiloti o'z reglamentida boshqa muddat belgilamagan bo'lsa, apellyatsiya berish muddati odatda 21 kunni tashkil etadi.

Mazkur mexanizm sport nizolarining tezkor hal etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Biroq CASning huquqiy maqomi bilan bog'liq muhim masala — uning mustaqilligi hisoblanadi. Sport tashkilotlari, ayniqsa xalqaro federatsiyalar, CAS yurisdiksiyasiga murojaat qilishni o'z nizomlari orqali belgilashi mumkin. Shu sababli sport tashkilotlari va CAS o'rtasidagi institutsional munosabatlar arbitrajning mustaqilligi va xolisligi nuqtayi nazaridan doimiy ilmiy muhokama predmetidir.⁸

Mazkur muammoni hal qilish uchun CAS tizimida arbitrajchilarni tanlash va ularga nisbatan e'tiroz bildirish mexanizmlari mavjud. CAS arbitrlari arbitraj va sport huquqi sohasidagi mutaxassislar bo'lishi, o'z faoliyatini mustaqil va xolis ravishda amalga oshirishi talab etiladi.

CAS AMALIYOTINING AFZALLIKLARI VA ZAMONAVIY MUAMMOLARI

CAS arbitrajining asosiy afzalliklaridan biri — ixtisoslashuvdir.⁹

Sport nizolari oddiy fuqarolik yoki tijorat nizolaridan farq qiladi. Masalan, doping masalasida sportchi tomonidan taqiqlangan moddaning qo'llanilishi, biologik pasport ma'lumotlari, laboratoriya tahlillari, sport reglamentlari va xalqaro antidoping standartlari bir vaqtning o'zida baholanishi mumkin.

⁶ Casini, L. *The Making of a Lex Sportiva by the Court of Arbitration for Sport*. *German Law Journal*, Vol. 20, 2019, pp. 469–484.

⁷ Casini, L. *The Making of a Lex Sportiva by the Court of Arbitration for Sport*. *German Law Journal*, Vol. 20, 2019, pp. 469–484.

⁸ Xodjimurotov Sh. *CAS как независимый арбитражный суд // Перспективы развития международного коммерческого арбитража в Узбекистане*. – 2022. – В. 54–62.

⁹ Lindholm, J. *The Court of Arbitration for Sport and Its Jurisprudence: An Empirical Inquiry into Lex Sportiva*. The Hague: T.M.C. Asser Press, 2019.

Shu sababli nizoni ko'rib chiqadigan arbitr nafaqat umumiy huquqiy bilimlarga, balki sport sohasining maxsus qoidalarini tushunishga ham ega bo'lishi lozim.

CASning institutsional modeli aynan shu ehtiyojga javob beradi.

Ikkinchi muhim afzallik — tezkorlik. Sport musobaqalari qat'iy vaqt jadvaliga ega. Shu sababli oddiy sud protsessining uzoq davom etishi sportchining huquqini amalda samarasiz himoya qilishi mumkin. CAS shoshilinch ishlar uchun tezlashtirilgan tartiblarni qo'llashi mumkin.¹⁰

Masalan, Olimpiya o'yinlari vaqtida CAS ad hoc bo'linmalari tashkil etilishi sport nizolarini juda qisqa muddatlarda ko'rib chiqish imkonini beradi. Bunday mexanizm dastlab 1996-yil Atlanta Olimpiadasida qo'llanilgan va keyinchalik boshqa yirik sport tadbirlarida ham rivojlantirilgan.

Shu bilan birga, CAS amaliyotida muammolar ham mavjud.

Birinchi muammo — sportchi va yirik sport tashkilotlari o'rtasidagi protsessual imkoniyatlarning tengligi masalasidir.

Sportchi ko'pincha moliyaviy va institutsional jihatdan kuchli federatsiya yoki xalqaro tashkilotga qarshi chiqadi. Federatsiya professional yuridik xodimlarga ega bo'lishi mumkin, sportchi esa bunday imkoniyatlarga ega bo'lmasligi ehtimoli yuqori.

Shu sababli arbitrajning formal tengligi mavjud bo'lsa ham, amaliy tenglik masalasi doimo dolzarb bo'lib qoladi.

Ikkinchi muammo — arbitraj xarajatlari.

Xalqaro arbitraj protsedurasi professional vakillik, arbitraj to'lovlari, ekspertlar va boshqa xarajatlarni talab qilishi mumkin. Bu esa iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan sportchilar uchun arbitrajga murojaat qilishni qiyinlashtirishi mumkin.

Uchinchi muammo — qaror qabul qilish tezligi bilan protsessual adolat o'rtasidagi muvozanatdir.

Tezkorlik sport arbitrajining asosiy afzalligi bo'lsa-da, haddan tashqari tezkor protsess taraflarning dalillarini to'liq taqdim etishi yoki o'z pozitsiyasini yetarli darajada asoslash imkoniyatini cheklamasligi kerak.

Demak, sport arbitrajining samaradorligi faqat “tez qaror chiqarish” bilan emas, balki “tez va adolatli qaror chiqarish” bilan baholanishi lozim.

CAS AMALIYOTIDA PROTSESSUAL ADOLAT VA SPORTCHI HUQUQLARI

Sport arbitrajida eng muhim masalalardan biri — sportchining protsessual huquqlarini ta'minlashdir.

Sportchi arbitraj jarayonida kamida quyidagi huquqlarga ega bo'lishi kerak:

- o'z pozitsiyasini taqdim etish;
- dalillar keltirish;
- qarshi tarafning dalillariga munosabat bildirish;
- vakil orqali ishtirok etish;
- arbitrajchilarning xolisligiga shubha tug'ilganda e'tiroz bildirish;

¹⁰ Court of Arbitration for Sport, *Code of Sports-related Arbitration*, R37; Court of Arbitration for Sport, *The Court*.

- qarorning asoslantirilgan bo'lishini talab qilish.¹¹

CASning amaliyoti shuni ko'rsatadiki, protsessual adolat sport arbitrajida mustaqil huquqiy qadriyat sifatida qaralmoqda.

Masalan, CASning 2024/A/10366-sonli WADA v. Anti-Doping Agency of Kenya & ishida sportchining protsessual huquqlarini himoya qilish masalasi alohida ko'rib chiqilgan.

Mazkur ishda arbitrajchi sportchining eshitis huquqi bilan ishni samarali va tezkor ko'rib chiqish zarurati o'rtasida muvozanat ta'minlanishi kerakligini qayd etgan.

Mazkur yondashuv sport arbitrajining muhim prinsipini ko'rsatadi: protsessning tezkorligi protsessual huquqlarning buzilishi hisobiga ta'minlanmasligi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, CAS amaliyotida "due process" prinsipi alohida ahamiyatga ega.

Bu prinsipning amaliy mazmuni shundan iboratki, sportchi yoki boshqa tarafga unga nisbatan bildirilgan da'volar yuzasidan o'z fikrini bildirish, dalillarni taqdim etish va qarshi tomon dalillariga javob berish uchun real imkoniyat berilishi kerak.

ANTIDOPING NIZOLARIDA CAS AMALIYOTI

Antidoping nizolari CAS faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir.

Doping bilan bog'liq nizolar oddiy sport nizolaridan murakkabroq bo'lib, ularda huquqiy masalalar bilan birga tibbiy va ilmiy masalalar ham mavjud.

Sportchining javobgarligini belgilashda taqiqlangan moddaning mavjudligi, uning sportchiga tushish sababi, sportchining aybi yoki ehtiyotsizligi, qo'llanilishi lozim bo'lgan sanksiya va boshqa holatlar kompleks tarzda baholanadi.¹²

CAS amaliyotida antidoping ishlarida sportchi huquqlarini himoya qilish va sportning halolligini ta'minlash o'rtasida muvozanatni topish muhim vazifa hisoblanadi.

CASning ayrim qarorlarida sportchi tomonidan antidoping qoidalarini buzilganligi aniqlangan taqdirda ham, sanksiyaning mutanosibliigi va sportchining individual holatlari alohida baholanadi.

Bunda "lex sportiva"ning shakllanishi ham kuzatiladi. Ya'ni CAS qarorlari orqali sportga xos huquqiy prinsiplar izchil rivojlanib boradi.

Masalan, CAS amaliyotida antidoping qoidalarini qo'llashda lex mitior — keyinchalik qabul qilingan, agar sportchi uchun qulayroq bo'lsa, normani qo'llash prinsipi ham tan olingan.

CASning WADA va FIFA bilan bog'liq 2009/A/1817 va 2009/A/1844-sonli ishlarida ushbu yondashuv aks etgan.¹³

Bu holat CAS qarorlari oddiy nizoni hal qilishdan tashqari, xalqaro sport huquqining mazmunini aniqlashtirishga ham xizmat qilishini ko'rsatadi.

CAS QARORLARINING LEX SPORTIVA SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI

¹¹ Court of Arbitration for Sport, *Code of Sports-related Arbitration*, R44.2–R44.3, R46, R57, Court of Arbitration for Sport

¹² World Anti-Doping Agency (WADA), *World Anti-Doping Code 2021*, Articles 2, 3, 10.

¹³ CAS 2009/A/1817, *WADA & FIFA v. Cyprus Football Association (CFA) & Andreas Michaelides*; CAS 2009/A/1844, *FIFA v. CFA & Eranosian*.

Xalqaro sport huquqining eng muhim xususiyatlaridan biri — uning turli xalqaro federatsiyalar reglamentlari, xalqaro shartnomalar, milliy qonunchilik va arbitraj amaliyotining o‘zaro ta’siri natijasida rivojlanishidir.

Shu jarayonda CAS alohida o‘rin egallaydi.

CAS tomonidan ko‘p yillar davomida ko‘rib chiqilgan nizolar natijasida sport huquqining ayrim umumiy prinsiplari shakllangan.

Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sport tashkilotlari qarorlarining huquqiy nazorat qilinishi;
- sport reglamentlarini oqilona va izchil talqin qilish;
- mutanosiblik prinsipi;
- protsessual adolat;
- sportchilarning eshitalish huquqi;
- sport tashkilotlarining institutsional avtonomiyasi;
- sport intizomi va individual huquqlar o‘rtasidagi muvozanat.

Shu sababli CAS amaliyoti Lex Sportiva shakllanishining muhim manbalaridan biri sifatida qaralishi mumkin.¹⁴

Biroq bu yerda muhim ilmiy masala mavjud: CAS qarorlari klassik ma’noda xalqaro shartnoma yoki davlat qonuni hisoblanmaydi. Shuning uchun Lex Sportiva’ni davlat huquq tizimlaridan mutlaqo mustaqil huquq tizimi sifatida baholash ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Bizning fikrimizcha, Lex Sportiva’ni xalqaro sport tashkilotlari qoidalari, umumiy huquqiy prinsiplar va CAS arbitraj amaliyotining o‘zaro ta’siridan shakllanadigan transmilliy sport huquqi normalari va prinsiplari majmui sifatida tushunish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

CAS QARORLARINI IJRO ETISH MUAMMOSI

Arbitraj institutining samaradorligi faqat qaror chiqarish bilan belgilanmaydi. Qarorning amalda bajarilishi ham arbitrajning muhim elementi hisoblanadi.

CAS qarorlari yakuniy xarakterga ega bo‘lib, ularning ustidan nazorat mexanizmlari mavjud bo‘lsa-da, davlat sudlaridagi odatiy ko‘p bosqichli apellyatsiya tizimiga o‘xshash qayta ko‘rib chiqish mexanizmi mavjud emas.

Bu sport nizolarini tezkor yakunlashga xizmat qiladi.

Biroq xalqaro arbitraj qarorlarini davlat hududida ijro etish masalasi xalqaro arbitraj huquqining umumiy qoidalari bilan ham bog‘liq.

Shu nuqtayi nazardan, 1958-yilgi Chet el arbitrajlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risidagi Nyu-York konvensiyasi xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etishning eng muhim xalqaro-huquqiy mexanizmlaridan biridir.

Arbitraj qarorini tan olish yoki ijro etishni rad etish asoslari cheklangan bo‘lib, ular qatoriga arbitraj kelishuvining haqiqiy emasligi, arbitraj vakolatining chegarasidan chiqish, protsessual talablarning buzilishi va jamoat tartibiga zidlik kabi holatlar kirishi mumkin.

¹⁴ Casini, L. *The Making of a Lex Sportiva by the Court of Arbitration for Sport*. German Law Journal, Vol. 20, 2019, pp. 469–484.

Shu sababli CAS qarorlarining xalqaro miqyosda samarali ijro etilishi sport arbitrajining amaliy qiymatini oshiruvchi muhim omildir.

CAS FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING HUQUQIY YO'NALISHLARI

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib, CAS faoliyatini takomillashtirish bo'yicha bir nechta yo'nalishlarni ajratish mumkin.

Birinchidan, sportchilar uchun huquqiy yordam mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Iqtisodiy imkoniyati cheklangan sportchilar uchun arbitrajga murojaat qilish imkoniyatini kengaytirish protsessual tenglikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.¹⁵

Ikkinchidan, arbitrajchilarning mustaqilligi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish mexanizmlarini yanada takomillashtirish lozim.

Arbitrajchining nafaqat amalda xolis bo'lishi, balki taraflarda uning xolisligiga nisbatan asosli shubha tug'dirmasligi ham muhim.

Uchinchidan, protsessual tezkorlik va adolat o'rtasidagi muvozanatni saqlash kerak.

Ayniqsa, Olimpiya o'yinlari yoki boshqa yirik musobaqalar vaqtida nizolarni juda qisqa muddatlarda hal qilish talab qilinadi. Bunday sharoitda taraflarning dalillarini to'liq taqdim etish imkoniyati saqlanib qolishi kerak.

To'rtinchidan, CAS qarorlarining ochiqqligi va ilmiy tahlil qilinishini kuchaytirish lozim.

CASning ommaga taqdim etiladigan qarorlari xalqaro sport huquqining rivojlanishida muhim manbaa hisoblanadi. Qarorlarning tizimli tahlili sport tashkilotlari va sportchilar uchun huquqiy aniqlikni oshiradi.

Beshinchidan, O'zbekiston sport huquqida xalqaro sport arbitrajidan foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

O'zbekistonning xalqaro sport maydonidagi ishtiroki ortib borayotganligi sababli sportchilar, federatsiyalar va sport klublari uchun xalqaro sport arbitrajining imkoniyatlarini tushuntirish va tegishli huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.¹⁶

XULOSA

Xalqaro sport nizolarining murakkablashuvi va sport munosabatlarining globallasuvi nizolarni ixtisoslashgan, tezkor va mustaqil mexanizm orqali hal etish zaruratini kuchaytirmoqda.

Mazkur ehtiyojga javoban CAS xalqaro sport arbitrajining markaziy institutlaridan biriga aylandi.

Tadqiqot natijasida CASning asosiy ustunliklari sifatida uning ixtisoslashuvi, sport huquqining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi, nizolarni tezkor ko'rib chiqish imkoniyati va xalqaro sport tashkilotlari qarorlarini arbitraj nazoratidan o'tkazish mexanizmi aniqlandi.

Shu bilan birga, CAS amaliyotida sportchi va sport tashkilotlari o'rtasidagi protsessual tenglik, arbitraj xarajatlari, arbitrajchilarning mustaqilligi, protsessual adolat hamda arbitraj qarorlarining ijrosi bilan bog'liq masalalar mavjud.

¹⁵ Court of Arbitration for Sport (CAS), *Guidelines on Legal Aid before the Court of Arbitration for Sport*, applicable from 1 July 2025.

¹⁶ Salomov J.B., Valeev A.M. Sport arbitraji O'zbekistonda rivojlanib borayotgan yangi huquqiy fenomen sifatida // *Yuridik fanlar axborotnomasi*. – 2022. – №4. – B. 142–148.

Ayniqsa, sport arbitrajida tezkorlik va protsessual adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. CASning zamonaviy amaliyoti sportchining eshutilish huquqini ta'minlashga katta ahamiyat berilayotganini ko'rsatadi.

CAS qarorlarining yana bir muhim ahamiyati shundaki, ular xalqaro sport huquqining rivojlanishiga va Lex Sportiva shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. CAS amaliyoti orqali mutanosiblik, protsessual adolat, sport tashkilotlari avtonomiyasi va sportchi huquqlarini himoya qilish kabi prinsiplar izchil rivojlanmoqda.¹⁷

Mening fikrimcha, xalqaro sport arbitrajining kelajakdagi rivojlanishi uch asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi kerak: birinchidan, sportchilar uchun protsessual kafolatlarni kuchaytirish; ikkinchidan, arbitrajchilarning mustaqilligi va xolisligini yanada mustahkamlash; uchinchidan, arbitraj qarorlarining xalqaro miqyosda samarali ijrosini ta'minlash.

O'zbekiston uchun ham ushbu tajriba muhim ahamiyatga ega. Mamlakat sport tizimining xalqaro integratsiyasi chuqurlashib borayotgan sharoitda xalqaro sport arbitraji bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, sport federatsiyalarining nizomlarida nizolarni hal etish mexanizmlarini takomillashtirish va sportchilarni xalqaro arbitraj jarayonlarida huquqiy qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, CAS zamonaviy xalqaro sport nizolarini hal etishda nafaqat nizolarni ko'rib chiquvchi arbitraj instituti, balki xalqaro sport huquqining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim huquqiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Court of Arbitration for Sport. *Code of Sports-related Arbitration*. – Lausanne: CAS, 2025.
2. Salomov J.B., Valeev A.M. Sport arbitraji O'zbekistonda rivojlanib borayotgan yangi huquqiy fenomen sifatida // *Yuridik fanlar axborotnomasi*. – 2022. – №4. – B. 142–148.
3. Nafziger J.A.R. *International Sports Law*. 2nd ed. – Transnational Publishers, 2011.
4. Xodjimurotov Sh. "CAS Как независимый арбитражный суд // *Перспективы развития международного коммерческого арбитража в Узбекистане*." – 2022. – B. 54–62.
5. World Anti-Doping Agency. *World Anti-Doping Code*. – WADA.
6. Turdaliyev M.P. "Sport sohasidagi nizolarning ko'rib chiqilishi." – Toshkent: TDYU.
7. Foster K. *Lex Sportiva: Transnational Law in Action*.
8. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida". – 2026-yil 24-mart, O'RQ-1123-son.
9. Court of Arbitration for Sport. *CAS Jurisprudence / CAS Awards and Decisions*.
10. United Nations. *Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards*. – New York, 1958.
11. UNESCO. *International Convention against Doping in Sport*. – Paris, 2005.

¹⁷ Casini, L. *The Making of a Lex Sportiva by the Court of Arbitration for Sport*. *German Law Journal*, Vol. 20, 2019, pp. 469–484.

12. Blackshaw I.S. *International Sports Law: An Introductory Guide*. – The Hague: T.M.C. Asser Press, 2017.
13. O‘zbekiston Respublikasining “Sportda dopingga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida”gi Qonuni.
14. Court of Arbitration for Sport. *CAS Ad Hoc Division*.
15. Casini L. *The Making of a Lex Sportiva by the Court of Arbitration for Sport German Law Journal*. – 2019. – Vol. 20. – P. 469–484.
16. CAS 2009/A/1817, WADA & FIFA v. CFA, C. Marques et al.